



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



ANALYSIS OF THE PHENOMENON OF INTER-CATEGORICAL TRANSITION IN KOREAN AND UZBEK LANGUAGES

Shakhlo Bakhtiyarovna Nazarova

*Acting Associate Professor of Zarmed University
Bukhara, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: inter-categorical transition, transposition, conversion, morphological analysis, semantic change, comparative analysis, morphology.

Received: 01.01.26

Accepted: 02.01.26

Published: 03.01.26

Abstract: This article provides a comparative analysis of the phenomenon of transposition in the Korean and Uzbek languages, its types, and its role in the grammatical structure of these languages. Using specific examples, the study highlights the possibilities of morphological and syntactic transposition in these two languages, which belong to the agglutinative group. During the research, the inter-categorical transition and functional changes of parts of speech are evaluated from a linguistic perspective.

KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA TURKUMLARARO KO‘CHISH HODISASINING TAHLILI

Shaxlo Baxtiyorovna Nazarova

Zarmed Universiteti v.b.dotsenti
Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: turkumlararo koʻchish, transpozitsiya, konversiya, morfologik tahlil, semantik oʻzgarish, qiyosiy tahlil, morfologiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys va o'zbek tillaridagi transpozitsiya hodisasi uning turlari va tillarning grammatik qurilishidagi o'zni qiyosiy tahlil qilinadi. Agglyutinativ tillar sirasiga kiruvchi ushbu ikki tilning morfologik va sintaktik transpozitsiya imkoniyatlari misollar yordamida yoritilgan. Tadqiqot davomida so'z turkumlarining o'zaro ko'chishi va funksional o'zgarishlari lingvistik nuqtayi nazardan baholangan.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МЕЖКАТЕГОРИАЛЬНОЙ ТРАНСПОЗИЦИИ В КОРЕЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Шахло Бахтияровна Назарова

и.о. доцент, Университет Зармед

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:
межкатегориальный транспозиция, морфологический анализ, изменение, сравнительный морфология.	переход, конверсия, семантическое анализ,	В данной статье проводится сравнительный анализ явления транспозиции в корейском и узбекском языках, рассматриваются её виды и роль в грамматическом строе языков. На примерах освещаются возможности морфологической и синтаксической транспозиции этих двух языков, входящих в группу агглютинативных. В ходе исследования с лингвистической точки зрения оцениваются взаимный переход и функциональные изменения частей речи.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda soʻz turkumlarining oʻzaro aloqasi va bir turkumning ikkinchisi vazifasida kelishi, yaʼni transpozitsiya masalasi doimiy dolzarb mavzulardan biri boʻlib kelmoqda. Transpozitsiya (lot. transpositio – qayta joylashtirish) – bu muayyan bir lisoniy birlikning oʻziga xos boʻlmagan boshqa sintaktik funksiyaga oʻtishi natijasida uning morfologik xususiyatlarining oʻzgarishidir. [3; 45-b.].

Koreys va oʻzbek tillari genetik jihatdan (Oltay nazariyasiga koʻra) va tipologik jihatdan (agglutinativlik) oʻxshash boʻlganligi sababli, ulardagi transpozitsiya hodisalari koʻp jihatdan mushtaraklik kasb etadi. Sharl Balli, Lyusen Tener kabi olimlar tomonidan asos solingan transpozitsiya nazariyasi bugungi kunda Sharq tillari materialida yangicha talqinlarga muhtoj. [1; 112-b.].

Transpozitsiyaning nazariy asoslari haqida aytadigan boʻlsak, u ikki xil koʻrinishda namoyon boʻladi.

1. Sintaktik transpozitsiya: Soʻzning lugʻaviy maʼnosi oʻzgarmagan holda faqat sintaktik vazifasi oʻzgaradi. Oʻzbek tilida sintaktik transpozitsiya koʻpincha konversiya (qoʻshimchasiz koʻchish) shaklida namoyon boʻladi. [6; 28-b.]. Bunda soʻz oʻzining birlamchi lugʻaviy maʼnosini saqlaydi, lekin uning gapdagi pozitsiyasi oʻzgaradi. Sifatning ot vazifasiga koʻchishi - Substantivatsiya deyiladi. Masalan.

- Birlamchi vazifa yaʼni aniqlovchi: Katta bino qurildi. Bu yerda katta — sifat soʻz turkumi hisoblanib, binoning belgisini bildiriyapti.

- Sintaktik transpozitsiya ya'ni ega: Katta kichikka yo'l beradi. Bu misolda Katta so'zi o'zining "hajm" ma'nosini saqlab qolgan, lekin gapda aniqlovchi emas, balki gapning egasi otga xos vazifada kelmoqda. Hech qanday morfologik ko'rsatkichsiz uning sintaktik vazifasi o'zgardi.

Ot so'z turkumining sifat vazifasiga ko'chishi -Adjektivatsiya deyiladi.

- Birlamchi vazifa ya'ni ega: Oltin qimmatbaho metaldir. Bu misolda oltin — ot, ashyo nomi).

- Sintaktik transpozitsiya ya'ni aniqlovchi: Uning oltin soati bor. "Oltin" so'zi lug'aviy ma'nosini saqlagan holda, gapda soatning belgisini, nimadan yasalganini bildirib, sifat vazifasini (aniqlovchi) bajarmoqda.

Koreys tilida sintaktik transpozitsiyaga misol ko'rib chiqamiz. Otning ravish vazifasiga ko'chishi -Adverbiatsiya deyiladi.

- Birlamchi vazifada Otning ega bo'lib kelishini ko'rib chiqamiz. Masalan. 오늘이 제 생일입니다. Bugun mening tug'ilgan kunim. Bu misolda "오늘-bugun" so'zi "-이 ega kelishigi" bilan kelib, ot vazifasini bajaryapdi.

- Sintaktik transpozitsiyada Ravishning hol bo'lib kelishini ko'rib chiqamiz. 오늘 갑시다. Bugun ketaylik. "오늘" so'zi hech qanday kelishik yoki qo'shimchasiz fe'lning oldida kelib, harakatning vaqtini bildirimoqda va hol vazifasida kelyapdi. Lug'aviy ma'no o'zgarmagan, lekin sintaktik pozitsiya otdan ravishga ko'chgan. [5 76-b.]. [4; 76-b.].

Miqdor so'zlarida transpozitsiya hodisasining namoyon bo'lishi quyidagicha.

- Birlamchi vazifada Sonning sifat bo'lib kelishini ko'rib chiqamiz. Masalan. 사람 다섯 명 - Besh kishi. Bu jumlada "다섯 -besh, miqdor bildiruvchi so'z vazifasida kelgan.

- Sintaktik transpozitsiyada sonning ot vazifasida kelishini ko'rib chiqamiz. 다섯에 둘을 더하면 일곱이다. Beshga ikkini qo'shsak, yetti bo'ladi. Bu jumlada "besh" va "ikki" sonlari kelishik qo'shimchalari (-에 va -을)ni olib, Substantivatsiya hodisasi ro'y bergan.

O'zbek tilida sintaktik transpozitsiya ko'proq atributiv-predikativ munosabatlar doirasida ot va sifat so'z turkumlarida sodir bo'lsa, koreys tilida u ko'proq nominal-adverbial ya'ni ot va ravish turkumlarida hamda miqdor bildiruvchi so'zlar tizimida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ikkala tilda ham bu hodisa tilning tejamkorlik tamoyiliga asoslanadi. Yangi so'z yasamasdan, mavjud leksik birlikning sintaktik valentligini kengaytirish orqali yangi ma'no qirralari ifodalanadi.

2. Morfologik transpozitsiya: So'zning bir turkumdan ikkinchi turkumga to'liq o'tishi (konversiya yoki derivatsiya orqali).

Koreys tilida bu jarayon 품사의 통용 – so‘z turkumlarining umumiy qo‘llanilishi deb atalsa, o‘zbek tilshunosligida ko‘proq “so‘z turkumlarining ko‘chishi” ya’ni substantivatsiya, adyektivatsiya terminlari bilan yuritiladi. [7; 201-b.].

Koreys tilida transpozitsiya hodisasi. Koreys tili o‘ta boy affiksatsiya tizimiga ega bo‘lib, fe’llarni otga yoki sifatga aylantirish (nominalizatsiya va adnominalizatsiya) jarayoni transpozitsiyaning asosiy o‘zagini tashkil etadi.

2.1. Substantivatsiya - Otlashish

Koreys tilida maxsus qo‘shimchalar orqali otlashadi fe’l va sifatlar

tarjimasife’l va sifatlar tuslangan shakli

tarjimasi

-기: 쓰다 yozmoq 쓰기 yozish

-ㅁ/음: 죽다 o‘lmoq 죽음 o‘lim

Koreys tilida maxsus qo‘shimchalar orqali otlashadi	fe’l va sifatlar	tarjimasi	fe’l va sifatlar tuslangan shakli	tarjimasi
-기:	쓰다	yozmoq	쓰기	yozish
-ㅁ/음:	죽다	o‘lmoq	죽음	o‘lim

Misol: 그 남자의 죽음은 슬펍습니다. U kishining o‘limi g‘amli edi. Bu jumlada fe’l o‘zining harakat ma’nosini saqlagan holda subyekt vazifasida kelib, ot turkumiga ko‘chgan.

2.2. Adyektivatsiya -Sifatlashish

Koreys tilida sifat turkumi mustaqil ravishda gapda aniqlovchi bo‘lib kela olmaydi, u albatta sifatdossh shaklidagina ko‘cha oladi.

- -ㄴ/은 : 예쁘다 -chiroyli bo‘lmoq → 예쁜 꽃 - chiroyli gul.

Bu misolda “예쁘다-chiroyli bo‘lmoq” (predikativ) transpozitsiya natijasida “예쁜-chiroyli” (atributiv) shakliga o‘tgan.

3. O‘zbek tilida transpozitsiya hodisasi asosan funksional-semantik xarakterga ega bo‘ladi. [6; 54-b.].

3.1. Substantivatsiya hodisasida sifat, son, olmosh va sifatdoshlarning ot turkumiga xos grammatik ko‘rsatkichlarni (kelishik, egalik, ko‘plik) qabul qilib, ot vazifasida kelishini misollarda ko‘rib chiqamiz.

Misol:

O‘zbekcha: Yaxshi oshar, yomon qachar.

Koreyscha: 착한 사람은 밥을 먹고, 나쁜 사람은 도망간다.

O‘zbek tilida “yaxshi” (sifat) hech qanday qo‘shimchasiz otlashgan bo‘lsa, koreys tilida bu ko‘pincha “사람” (kishi) so‘zi bilan yoki -(으) ㄴ 것 konstruksiyasi orqali ifodalanadi.

3.2. Adverbiatsiya -Ravishlashishda sifatlarning fe'l oldidan kelib, harakatning belgisini bildirishi bilan amalga oshadi. Tez (sifat) → Tez yurmoq (ravish).

Koreyscha: 빨리 걷다. Bu misolda 빠르다 -band bo'lmoq/tez bo'lmoq o'zagi transpozitsiyaga uchragan.

Koreys va o'zbek tillaridagi transpozitsiya jarayonlarini solishtirganda quyidagi qonuniyatlar ko'zga tashlanadi:

Xususiyat	Koreys tili	O'zbek tili
Asosiy usul	Morfologik (affiksatsiya kuchli)	Funksional-semantik va morfologik
Otlashish	-기, -고--(으)ㄴ 것 kabilar shart	Kontekstual
Sifatlashish	Sifatdosh shakli orqali	Sifat o'z holicha aniqlovchi bo'ladi
Agglyutinatsiya	Yuqori darajada	Yuqori darajada

Sintaktik misol: 먹기가 힘들어요. Yeyish qiyin. Bu misolda har ikkala tilda ham -기 va -ish affikslari fe'lni ot turkumiga ko'chirmoqda. Biroq, o'zbek tilida "Yaxshilar ko'p" deganda "yaxshi" so'zi affiksiz otlashsa, koreys tilida "좋은 사람들" sifatdosh shakli ko'rinishida morfologik o'zgarishi majburiydir.

Transpozitsiya jarayonida so'zlarning semantik ko'lamiga kengayadi. Masalan, koreys tilidagi 봄 – bahor so'zi aslida "보다 – ko'rmoq" fe'lidan kelib chiqqan ya'ni ko'riladigan go'zallik ma'nosida. O'zbek tilida ham o'tim (savdo) so'zi "o'tmoq" fe'lining substantivatsiyalashgan shaklidir. Bu tillarning o'xshash tafakkur tarzidan dalolat beradi.

Koreys va o'zbek tillarida transpozitsiya hodisasi tilning tejamlilik tamoyiliga xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki Koreys tilida transpozitsiya ko'proq qat'iy morfologik qoliplarga ega. O'zbek tilida transpozitsiya moslashuvchan bo'lib, konversiya, so'z o'zgarishsiz turkumini o'zgartirishi hodisasi ko'proq uchraydi. Ikkala tilda ham transpozitsiya agglyutinativlik qonuniyatlariga bo'ysunadi, ya'ni yangi hosil bo'lgan turkum o'ziga xos barcha grammatik ko'rsatkichlarni qabul qila oladi.

Ushbu qiyosiy tadqiqot ikki til grammatikasini o'qitish metodikasini takomillashtirishda va mashina tarjimai tizimlarini ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bally Sh. Общая лингвистика и французская Лингвистика. - Париж: Берн, 1932.
2. Теньер Л. Элементы структурного синтаксиса. - Париж: Клинксик, 1959.
3. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.

5. Lee Ik-seop, Sang-oak Lee, Chae Wan. The Korean Language. – Seoul: National Academy of the Korean Language, 2000.
6. Nematov H., Sayfullayeva R. O‘zbek tili struktur sintaksisi. – Toshkent: Universitet, 1999.